TILSHUNOSLIKDA DISKURS TUSHUNCHASI HAQIDA TURLI QARASHLAR

Xolmatova Nozimaxon Iqbol qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: xolmatovanozimaxon7@gmail.com

Annotatsiya
Ushbu maqolada diskurs tushunchasi haqida ma’lumotlar beriladi. Diskursga oid jahon va o‘zbek tilshunos olimlarining nazariy fikrlari bayon qilinadi. Diskursning tilshunoslikdagi ahamiyati ko‘rsatiladi.
Kalit so‘zlar: *diskurs, diskursiv tahlil, kontekst, muloqot maqsadi, madaniy-ijtimoiy formatsiya.*

KIRISH

Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslikda diskurs tahlili bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Diskurs tahliliga oid jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan qanday ishlar olib borilganlini tahlil qilishdan avval diskurs so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tsak. Merraim Vebster lug‘atida diskurs so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: og‘zaki muloqot jarayonida suhbatdoshlarning o‘zaro fikrlarini almashinuv jarayoni; aniq bir mavzu bo‘yicha rasmiy tartibli va kengaytirilgan fikrlar ifodasi; bir gapdan uzun bo‘lgan yozma yoki og‘zaki nutq; aniq bir vaziyatda va aniq joyda (institutda, korxonada) bilim, g‘oya va tajribalarini almashinuv jarayoni; arxaik so‘z sifatida tartibli ishlash va tartibli fikrlash qobiliyati, eskirgan so‘z sifatida esa muloqot jarayonining odatiy shakli hisoblanadi[1]. Diskurs– uzviy bog‘langan nutq yoki matn bo‘lib, u lingvistik birliklar, kontekst, ijtimoiy omillar va kommunikativ strategiyalar orqali shakllanadi. Etimologik jihatdan, so‘z lotincha discurrere (“tarqalmoq, harakatlanmoq, fikr almashmoq”) fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, keyinchalik fransuz tilidagi discours orqali ingliz tiliga o‘tgan va XVI-XVII asrlardan boshlab ishlatila boshlangan. Diskurs tilshunoslik, pragmatika va ijtimoiy fanlar doirasida o‘rganilib, muloqotning uzluksizligi, kontekstga bog‘liqligi va ma’no hosil qilish jarayonini aks ettiradi[2].

Diskurs atamasi birinchi marta Z.Harris tomonidan 1952-yilda fanga kiritilgan[3]. D.Schiffrinning fikriga ko‘ra diskurs tilning shunchaki tovushlar, morfemalar, so‘zlar, gap tarkiblari va jumlalar to‘plamidan kattaroq bo‘lgan birlik hisoblanadi[4]. Diskurs suhbat jarayonida muloqot qilish uchun ishlatiladigan bir-biriga bog‘langan og‘zaki yoki yozma til unsurlari (urg‘ular, gaplar)dir. Shuningdek, diskurs tilning barcha shakllari yordamida (imo-ishoralar ham) muloqot qilish va o‘zaro ta’sir qilish

[1] https://www.merriam-webster.com/ Murojaat sanasi: 27.01.2026
[2] Yuldosheva M. Pragmalingvistik terminlarning izohli lug‘ati :Uslubiy qo‘llanma, Namangan – 2025.—113 b.
[3] Harris Z. Discourse analysis. – Language, 1952. – Vol. 28. – P. 1–30.
[4] Schiffrin D. Discourse// An Introduction to Language and Linguistics/ edited by R.Fasold, J. Connor-Linton—Cambridge:CUP,2006.—171p.

jarayonidir[5]. Diskurs tahlili jarayoniga kontekst ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. S. Mills ta’kidlaydiki, diskursni uning kontekstual faoliyati doirasida, ya’ni real vaziyatlardagi til o‘zaro ta’siri sifatida ko‘rib chiqish lozim. Bu ta’riflar shuni ko‘rsatadiki, diskurs shunchaki til birliklarining yig‘indisi emas, balki dinamik va ijtimoiy shartlangan hodisa bo‘lib, u muloqot konteksti hamda kundalik hayotdagi o‘zaro ta’sir bilan uzviy bog‘liqdir[6]. T.A. van Dijkning firklariga ko‘ra, “diskursga ta’sir qiladigan (yoki undan ta’sirlanadigan) narsa ijtimoiy vaziyatning o‘zi emas, balki ishtirokchilarning vaziyatni qanday talqin qilishi (asl urg‘u saqlangan) ham muhim sanaladi. Uning fikricha, kontekst obyektiv sharoitlar emas, balki (o‘zaro) subyektiv konstruktlar bo‘lib, ular ishtirokchilar tomonidan bir-biri bilan guruh yoki hamjamiyat a’zolari sifatida o‘zaro aloqada bo‘lish jarayonida doimiy ravishda yangilanib boradi[7].

Diskurs tahlil jarayonida nimalarni o‘z ichiga olishi haqida so‘z ketganda P.Cunning va B.Valkerlarning diskurs to‘g‘risida mulohazalari o‘rinli hisoblanadi. Olimlarnig fikriga ko‘ra, diskurs tilning barcha lisoniy va nolisoniy xususiyatlari (sintaksis, leksikologiya va morfologiya) o‘z ichiga oladi balki til ishlatiladigan kontekst, tildan foydalanuvchi odamlar va muloqot jarayonidan ishtirokchilarning tildan foydalanishdagi maqsadlarini ham o‘z ichiga oladi [8] . Diskrusda muloqot ishtirokchilarining muloqot maqsadining muhimligini Sh.Bobojonova ham ta’kidlaydi. Olimaning fikriga ko‘ra, maqsadning aniq ifodasi, uning natijaviyligi fikrning qa’tiyligi intensiyasi bilan uyg‘un bo‘ladi. Adresantning intensiyasi muloqot diskursining yo‘nalishini belgilaydi. Intensiyaning qa’tiyligi, hatto, bo‘lingan diskursning ikkinchi etapini davom ettirishni ham ta’minlaydi.Bu yuqoridagi mantning davom etishiga intensional faoliyatning ta’siri sifatida baholanishi mumkin va kommunikantlardan birining tashabbusi yoki rag‘bati asosida amalga oshiriladi [9].M.Fuko diskurs atamani muayyan madaniy-ijtimoiy formatsiyaga mansub nutqiy ifodalar majmuasi sifatida talqin qiladi[10]. P.Cunning va B.Valkerlarning fikrlariga ko‘ra, diskursning strukturaviy, kognitiv va ijtimoiy jihatlari ham mavjud .Strukturaviy jihatdan tilning grammatik xususiyatlarini, kognitiv jihatdan til foydalanuvchilarnng dunyo haqida tasavvurini, ijtimoiy jihatdan esa til foydalanuvchilarning ijtimoiy munosabatlari va ijtimoiy xatti-harakatlarini o‘z ichiga oladi[11].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[5] P.Cunning and B.Walker : Discourse analysis A practical introduction—Oxon: Routledge.2024. — 325p.
[6] Mills S. Discourse. - London and New York, Routledge. 1997. - 177 p.
[7] van Dijk T. A. Discourse and context: A sociocognitive approach.- Cambridge, 2008. - 267 p.
[8] P.Cunning and B.Walker : Discourse analysis A practical introduction—Oxon: Routledge.2024. — 325p.
[9] Bobojonova Sh. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ta’limiy diskursning kognitiv-pragmatik tadqiqi:Filol.fanlari bo‘yicha falsafa dri diss.avtoref.—Andijon, 2023.—24b.
[10] Фуко М. Воля к истине: по ту сторону знания, власти и сексуальности. Работы разных лет. – М.: Касталь, 1996. – С.60
[11] P.Cunning and B.Walker : Discourse analysis A practical introduction—Oxon: Routledge.2024. — 325p.

1.Bobojonova Sh. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ta’limiy diskursning kognitiv-pragmatik tadqiqi:Filol.fanlari bo‘yicha falsafa dri diss.avtoref.—Andijon, 2023.—24b.

2.Cunning.P and B.Walker : Discourse analysis A practical introduction—Oxon: Routledge.2024. —325p.

3.Фуко М. Воля к истине: по ту сторону знания, власти и сексуальности. Работы разных лет. – М.: Касталь, 1996. – С.60

4.Harris Z. Discourse analysis. – Language, 1952. – Vol. 28. – P. 1–30.

5.Mills S. Discourse. - London and New York, Routledge. 1997. - 177 p.

6.Schiffrin D. Discourse// An Introduction to Language and Linguistics/ edited by R.Fasold, J. Connor-Linton—Cambridge:CUP,2006.—171p.

7.van Dijk T. A. Discourse and context: A sociocognitive approach.- Cambridge, 2008. - 267 p.

8.Yuldosheva M. Pragmalingvistik terminlarning izohli lug‘ati :Uslubiy qo‘llanma, Namangan – 2025.—113 b.

9.https://www.merriam-webster.com/ Murojaat sanasi: 27.01.2026